

**BOLALIK INSON TAQDIRIGA TA'SIR ETIB
KELAJAGINI NAMAYON QILADIGAN DAVR.**

Qashqadaryo viloyati Qarshi shahri

18- Dmtt Tayyorlov guruhi tarbiyachisi

Abdurasulova Malohat

Annotatsiya. Ushbu maqolada yetishib kelayotgan kelajak avlodni yosh davrlari haqida berib o'tilgan ma'lumotlar ham nazariy bilimlar ko'nikmasi mujassamdir.

Kalit so'zlari. Bolalik, davr, bilim, tarbiya, muhit, ota-onा.

Bolalik yillari haqiqatdan ham inson taqdiriga ta'sir etadigan bebahodavrdir. Bu davrni esa albatta maktabgacha ta'lim tashkiloti bilan bog'lanmasdan ilojimiz yo'q. Bizning yoshligimiz bolaligimizdagi kulgi quvonchlarimiz sababchilari albatta tarbiyachilarimiz xisoblanadi.

Bolaligimizdagi xar bir berilayotgan ta'lim tarbiya negizida albatta yaxshilik umidlar mujassamlashgan bo'ladi.

Bolaning kichik yoshida ta'lim tarbiyasiga bag'ishlangan har bir yil kelajakda u oladigan maoshni 7-11%ga oshiradi.

Bolalar baxtli bo'lishning teng imkoniyatlari bilan tug'iladi. Tug'ilajak ota-onা ularni baxtli bo'lishga tayyorlab o'rnatib borishlari kerak. Biroq ota-onalar bolalik yillaridan turlicha foydalanadilar kimdir farzand bilan tinmay ishlaydi. Xozirgi zamon talabi deb ko'proq pul topish ilinjida farzandlariga befarq bo'layotgan ona-otalar bolani yoshligini ham farzandni kelajagini yarataman deb o'zi bilmagan xolda barbod qilib quyishoqda.

Mablag' kerak albatta lekin farzand undanda muhim sanaladiki biz uchun bilim xar soat xar minutda kerak shunday ekan biz kelajaklarimiz uchun ko'proq vaqt ajratib ularni ulg'ayishiga kuch sarflashimiz kerak.

Tarbiya –bugun eng ko’p aytildigani so’z bu bejiz emas chunki bu so’z ortida vatan- nillat taqdiri turibdi. Demak, har ota-onan qushni, tanish-bilish qarindoshlari bilan gaplashganlarida ”Bolangizda qaysi” fazilatlarni tarbiyalayapsiz?

Qancha, qaysi illatlarni yo’qotdingiz? “Bola tarbiyasida qaysi usullarni qo’llayapsiz, menga ham o’rgating”, degan savollarni berib borishlari kerak afsuski, bu savollar juda kam uchrayaptida!

Bola qalbi-oq qog’oz, unga nima chizsak, yozsak shu qolishi haqiqat. Yoshligidan qanday xolatlar qanday o’tganligini ta’siri ostida kelajagi yaralishini bilsak bo’ladi. Faqatgina shu bola bilan psixologik ishlab ko’rishni tavsiya etaman . Bolaning tarbiyasi jarayonida saxiylik,mehrlilik,raxm shavqatlilik bo’lish eng avvalo bu sizga mujassam bo’lishi zarur, bola har bir yaxshi yomon fazilatlarni tarbiya orqali sizdan o’rganadi.

Agar sadoqat, izzat osoyishtalik, rohat, sharaf, nomus, va e’tibor kerak bo’lsa tezroq, tarbiyasi usullarini bilib olib, bolalarimizni shu usul va qoidalar asosida tarbiyalashimiz lozin deb aytib o’tgan “Fitrat” tarbiyaning har bir qismi tug’ulishdan 7 yoshgacha avval, ota-onan zimmasiga tushadi.

Bog’cha yoshidagi davr shunday davrki, unda shakllanajak harakter-hislatlarimiz belgilanadi va ahloqiy sifatlarimizning asoslari yuzaga keladi, deb ta’kidlab o’tgan. P.F.Lesgaft.

Bolalarning musaffo bolaligiga rahna solmasligimiz kerak.

Bolaning bolaligiga atrof muhit ota-onan kuchli ta’sir etadi, ota-onan orasidagi mojarolar bilan shaxsni rivojlantirishiga jiddiy ta’sir ko’rsatadi. Kattalar va ularning farzandlari bir butun yaxshilikni tashkil etadi. Ota-onan esa kichkintoyni ruhiy rivojlanishi uchun poydevor, asos xisoblanadi.

Tarbiyasi og’ir bolalik hech qachon tugamaydi. “E. Urban” Eng dahshatlisi, kichkina bolalar nizo sabablarini tushuntirib bera olishmaydi va

aybnu o'z yelkalariga olishadi. O'z vaqtida farzandimizni kelajagini yaxshi tomonga o'zgarishini xoxlasak bolaga bolaligini yaratib beraylik hayot tashvishlari bilan xalaqit qilmaylik.

Foydalanilgan adabiyotlar.

- 1.Bola ma'naviyati. Uzluksiz ma'naviy tarbiya trilogiyasi.
2. 3-7 yosh bolalarni tarbiyalash bo'yicha metodik tavsiyalar.
3. Ilk qadam maktabgacha ta'lim muassasasinig davlat o'quv dasturi Toshkent 2022 yil.